

Tilshunoslik fanining til o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati

Mamatqulov. A

ADCHTI dotsentif.f.n.

Muxiddinova Marjona

Filologiya va tillarni o‘qitish: fransuz til iyo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Tilshunoslik fanining o‘qitilishi, uning tarixiy jarayoni haqida bayon qilish. Olimlar: Mahmud Koshg‘ariy, Zamakhshariy va O‘rtal Osiyolik olimlarning tilshunoslik rivojiga qo‘shgan hissalari. Rus olimi Lomonosovning taqdiqotlari ifodalangan. Tilshunoslik o‘qitishning metod va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistika, til, usul, avtomatik, eksperimentalfonik, EHM, akkustik usul

Abstract: Description of the teaching of linguistics, it’s historical process. Scientists: Mahmud Koshghari, Zamakhshari and the contributions of the Central Asian scientists to the development of linguistics. The researches of the Russian scientist Lomonosov are expressed. Methods and methods teaching linguistics are discussed.

Аннотация: Описание преподавания языкоznания, его исторического процесса. Ученые : Махмуд Кошгари, Замахшари и вклад ученых Центральной Азии в развитие языкоznания. В выражень исследования русского ученого Ломоносова. Обсуждаются методъ и методъ преподавания языкоznания.

Barchamizga ma’lumki, tilshunoslik ya’ni lingvistika bu-til haqidagi, uning ijtimoiy tabiat, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandir. Xo‘sh, bizda shunday savol bo‘ladi. Tilshunoslik bizga nima uchun kerak? Biz uni nim auchun fan sifatida o‘tamiz, o‘rganamiz? Kelinglar, oldin shu ikki savolga javob topsak. Inson

borki, til uning hayotida muhim o‘rin tutadi. Tilsiz ya’ni o‘z tiliga ega bo‘limgan davlatda yuksalish, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. Endi biz uni fan sifatida o‘qitilishiga to‘xtalsak. Shuni ta’kidlash lozimki, til o‘rgatishga ixtisoslashgan oliyta’lim muassasalarining barchasida talabalarga tilshunoslik fanidan saboq beriladi. Bunga sabab, tilsiz millatni tasavvur etib bo‘lmaydi. Tilshunoslik maqsadi va vazifasiga ko‘ra, bir nechta yo‘nalishlarga bo‘linadi: umumiyyti lshunoslik, xususiy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik va boshqalar. Tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o‘rganuvchi ko‘plab tarmoq va bo‘limlari bor. Shulardan semasologiya til birliklari ma’nolarini o‘rganadi, fonetika va fonologiya tilning tovush qurilishini tekshiradi. Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni lmiy sharhlashda va ularni to‘g‘ri tushunish uchun nazariy xulosala rchiqarishga imkon berdi.

Tilshunoslik muammolarini o‘rganish dastlab Qadimgi Hindistondan oshlanadi. Qadimgi Hind tilshunosligi mil.avv 6-asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharhlash natijasida vujudga kelgan. Turkiy tilshunoslikning rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy , Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy va Zamaxshariy singari O‘rta Osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo‘lgan. Ibn Sino tovushlarni fonema nuqtainazaridan tekshirgan bo‘lsa, Javhariy, Koshg‘ariy va Zamaxshariylar leksikasi va leksikografiya sohasida jahon tilshunosligiga katta yangiliklar kiritganlar. Bundan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy va Zamaxshariylar o‘zlarining „Devon ulug‘otit-turk”, „Muqaddimatul-adab” asarlari bilan turkiy lahjalarni hamda boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarni qiyoslash va chog‘ishtirish bilan tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod va tipologiyadan foydalangan dastlabki tilshunoslar sifatida nom qozonganlar. M.V.Lomonosovning „Rus fammatikasi” asarida rus adabiy tilining fonetik, morfologik, qisman sintaktik xususiyatlari birinchi marta izchil bayon qilingan. O‘zbek tilini hozirgi ma’noda o‘rganish 20-asrning 20-yillaridan

boshlangan. Xo'sh, endi til o'rganish metodlari haqida fikr yuritsak, uning ta'siri qandayligini izohlab o'tsak. Jumaladan, onatilini tahlil qilish metodlari bilan chet tillarini tahlil qilish metodlari, tilning sotsiologik jihatlarini o'rganish usullari bilan nutq tovushlarini tahlil qilish usullari bir-biridan katta farq qiladi. Har bir fanga oid tadqiqot usullarini qo'llashning muayyan yo'l-yo'riqlari mavjud bo'lib, ular shu fanning ish yuritish metodikasini tashkil etadi. Demak, metod bu-bilish usuli bo'lsa, metodika -bilish usulida qo'llanadigan yo'l-yo'riqdir. Har bir fanning umuniy metodologiyasi ham mavjud bo'lib, fanning tadqiqot usullari haqidagi ta'limotdir. Masalan, biz hozir tavsifiy metodni izohlasak. Bu metod jahon tilshunosligining eng qadimiy va dastlabki yetakchi metodi hisoblanib, qadimgi arab, yunon, hind, xitoy, rim tillariga oid yaratilgan asarlar grammatikalar mazkur metod asosida yaratilgan. Tavsifiy metod sinxron analiz metodi bo'lib, obyektni turgan holatida berilgan ma'lumotlar asosida o'rganadi. Tavsifiy metod tomonidan olingan ma'lumotlar barcha metodlar uchun tayanch nuqta hisoblanadi. Buni ifodalashda tahliliy usullarning bir nechtasidan foydalaniлади.

1.Ijtimoiy -sotsiologikusul- so'zlarni tematik guruhlash, mavqeい, me'yoriy-uslubiy xususiyatlarini o'rganadi.

2.Talaffuz- akkustik usul orqali nutq tovushlarining talaffuz-eshitilish xususiyatlari ,fonetik hodisalar tahlili o'rganiladi. Bunda, ayniqsa, eksperimental fonik tahlil metodi muhim o'rinn tutadi. Ushbu metoddha nutq tovushlari, intonatsiya, pauza, ritm kabi fonetik hodisalarni maxsus texnik vositalar, asboblar yordamida tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, lisoniy birliklarni elektonlashtirish metodi ham mavjud. Bu avtomatik tahlil metodi deb ham yuritiladi. Ushbu metod davr talabi bilan yaratilgan zamonaviy tahli lmetodlaridan biri bo'lib, uning o'ziga xoslig ielektron-hisoblash mashinalari (EHM) kompyuterlar yordamida tilni muayyan, bo'laklar, lisoniy birliklar, formal qismlarga ajratish orqali bir tildagi lisoniy birliklar mazmunini boshqa tilga ko'chiradi, ya'ni kompyuter vositasida avtomatik tarjima qilinadi. Buning

uchun avval matnni tarjima qilish imkoniyatini beradigan qoidalar tizimini yaratadi, so‘ngra mazkur qoidalarni mashina tilida yozish, ya’ni mazkur qoidalarni amalga oshirish uchun dastur yaratiladi. Dastur va lug‘atlar maxsus shartli belgilar bilan ifolanadi.

Mana, tilshunoslikning metodlari bilan ham ozgina tanishdik. Endi fikr yuritadigan yana bir masalamiz bor. Bu fanni biz qay darajada o‘qityapmiz, qay darajada yoshlarga yetkazib beryapmiz? Yoshlar qaysi tarafga qarab ketyapti bilmay qolyapmiz. Har bir gapda chet so‘zlarni ishlatishadi, axir bu tilga qilingan xiyonatemasmi? Ko‘pchiligidan o‘zimizning milliy madaniyatlarimizdan qochib, chetel madaniyatini bizning milliy madaniyatimizga xos bo‘lmagan jihatlarini o‘zimizni qilib olyapmiz. Biz ,albatta, xorijiy tilni, ularning madaniyatini o‘rganishda ijobiyt omonini olishimiz kerak bo‘ladi. Unutmang, milliylikni yo‘qotish degani ertangi kunni yo‘qotish bilan barobar. O‘zimizning qanday go‘zal tilimiz bor. Biz uni faxrlatilga olishimiz, shu yurt, shu millat farzandi ekanimizdan quvonishimiz kerak. Zero, bu til ham, bu osmon ham, bu yurt ham barchamizniki. Hammamiz birlashsakgina biz katta jamoa bo‘lib, buyuk ishlarni amalga oshiraolamiz.

Foydalanilga nadabiyotlar ro‘yxati:

1. Амирова Т., Олховиков Б. А., Рождентсвенский Ю.В. Очерки по истории лингвистики.-М., 1975.
2. Irisqulov M.T Tilshunoslikka kirish.-T.,2009
3. O‘ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Usmonov S. Umumiyyatshunoslik. – Т., 1972
5. Кодухов В.И. Общее языкознание.-М.,2010
6. Ф.де Соссюр. Труды по языкознанию.-М.,1977